

**O'ZBEKISTON VA JAHON SAVDO TASHKILOTI:
SUBSIDIYALAR TARTIBINI UYG'UNLASHTIRISHNING HUQUQIY
ASOSLARI**

Toyirov Azizbek

Toshkent davlat yuridik universitetining
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida o'qituvchisi
azizbektoyirov7@gmail.com

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasi xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashish yo'lida muhim bosqichlardan birini bosib o'tmoqda. Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish masalasi nafaqat tashqi savdo siyosatining markaziy yo'nalishi, balki mamlakatning ichki iqtisodiy, institutsional va huquqiy islohotlarining muhim omiliga ham aylangan. Xususan, subsidiyalarni tartibga solish masalasi JSTning asosiy kelishuvlaridan biri bo'lgan Subsidiyalar va kompensatsion choralar to'g'risidagi Bitim (SKCH bitimi) doirasida O'zbekistonga o'z qonunchiligini tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur maqolada O'zbekiston va jahon savdo tashkiloti: subsidiyalar tartibini uyg'unlashtirishning huquqiy asoslari tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: savdo, subsidiya, qonuniylik, huquqiy asoslar.

I. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni: tarixiy bosqichlar va siyosiy kontekst

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish yo'lidagi harakatlari 1994-yilda tashkilotga asos solingan vaqtda boshlangan. 1995-yilda rasmiy ariza topshirilganidan so'ng, mamlakat JST ishchi guruhi bilan to'rtta maslahatlashuv bosqichini o'tkazdi. Biroq, 2005-yildan 2016-yilgacha bo'lgan 11 yillik tanaffus jarayonning sur'atini to'xtatdi. Yangi siyosiy rahbariyat saylanishi bilan 2016-yildan boshlab muzokaralar yana jonlandi. 2023-yil 14-martda O'zbekistonning

JSTga a'zo bo'lish bo'yicha ishchi guruhining oltinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi, bu esa xalqaro hamjamiyatda O'zbekistonning ochiqqligi va islohotlarga sadoqatini yana bir bor tasdiqladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni BMTning 78-sessiyasida so'zlagan nutqida JSTga a'zo bo'lishni mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish bo'yicha "ustuvor vazifa" deb e'lon qildi. "O'zbekiston-2030 Strategiyasi"ning 93-bandida esa ichki qonunchilikni JST standartlariga moslashtirish alohida ko'rsatib o'tilgan.

JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston uchun faqat tashqi savdo bozori kengayishi emas, balki mamlakat ichki huquqiy tizimining global savdo qoidalari bilan uyg'unlashtirilishini ta'minlaydigan chuqur institutsional transformatsiyani ham anglatadi. Ayniqsa, subsidiyalarni tartibga solish masalasi JST doirasida murakkab, ammo hal qiluvchi ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

SKCH Bitimi subsidiyalarni uch toifaga bo'ladi:

1. Qat'iy man etilgan subsidiyalar (masalan, eksport bilan bog'liq subsidiyalar va milliy mahsulotlarni importdan ustun qo'yadigan subsidiyalar);
2. Aniqlanganda zarar yetkazadigan subsidiyalar (ular import qiluvchi mamlakatda ichki sanoatga zarar yetkazsa, kompensatsion chora ko'rilishi mumkin);
3. "Muvofiqlikdan holi" subsidiyalar (masalan, ilm-fan, innovatsiya yoki infratuzilma kabi maqsadlar uchun ajratilgan subsidiyalar).

Yuqorida qoidalar SKCH bitiminig asosi bo'lib, har a'zo davlat o'z qonunchiligini yuqorida keltirilgan 3 turdagi JST subsidiyalar normalariga uyg'unlashtirishi, hamda ushbu normalarga zid keladigan holatlarni bartaraf etishi

kerak hisoblanadi. Shu munosabat bilan, O'zbekistonning amaldagi qonunchiligida JST SKCH bitimida keltirilgan asosiy talab va normalarni uyg'unlashtirish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish jarayoni qonunchilik, byurokratik va strategik muvofiqlikni ta'minlovchi normativ bazani kengaytirishni talab etadi. 2023-yilda qabul qilingan bir qator Prezident farmonlari bu yo'lda muhim asos bo'lib xizmat qildi, shular jumlasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28 yanvar 2022 yilgi PF-60-sonli farmonida 2022–2026 yillarda rivojlanish strategiyasi doirasida JSTga a'zo bo'lish muhim ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi.¹ Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 sentabr 2023 yilgi PF-158-sonli farmoni “O'zbekiston-2030 Strategiyasi” JST standartlariga muvofiqlashtirishni belgilaydi.² Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 iyun 2023 yilgi PQ-181-sonli qarorida³ JST bilan muzokaralar jarayonini tezlashtirish va institutsional koordinatsiyani kuchaytirish maqsadida Prezident Administratsiyasi tarkibida JST masalalari bo'yicha maxsus vakil lavozimi joriy etildi. Maxsus vakilning vazifalariga:

JSTga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirish, mas'ul vazirlik va idoralar faoliyatining natijadorligini ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish;

JSTga a'zo bo'lish shartlari, shuningdek, tashkilotga a'zo davlatlar bilan muzokaralar o'tkazishda har bir masala bo'yicha aniq pozitsiya ishlab chiqilishi va takliflarning Komissiyaga ko'rib chiqish uchun kiritilishini ta'minlash;

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

² <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>.

³ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6480161>.

JSTga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralarni o'tkazishga puxta va har tomonlama tayyorgarlik ko'rish hamda ularning samarali o'tkazilishini ta'minlash;

JSTga a'zo bo'lish jarayonida O'zbekiston Respublikasi pozitsiyasini yetkazish maqsadida JST Kotibiyati va a'zo davlatlar hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy vakillari bilan doimiy ishchi aloqalarni o'rnatish;

JSTga a'zo bo'lish jarayonida donorlarning texnik ko'magi va ular tomonidan ajratiladigan grant mablag'laridan samarali foydalanishni muvofiqlashtirish va nazorat qilish.

Bundan tashqari, 2023-yil 1-iyuldan boshlab JSTga zid bo'lgan yangi normativ hujjatlarni ishlab chiqish taqiqlandi.

O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan keyin subsidiya siyosatini qayta ko'rib chiqmasdan turib faoliyat yurita olmaydi. Davlat idoralari, ayniqsa iqtisodiy rivojlanish va moliya sohasida ishlovchi xodimlar, ilgari tayanilgan ko'plab vosita va mexanizmlarni yangilab chiqishlari talab etiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

- Eksportni bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan subsidiya dasturlarining bekor qilinishi yoki ularni transformatsiya qilish;
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni nohalol tarzda qo'llab-quvvatlaydigan imtiyozlar va subsidiyalarning JST bilan mosligini qayta tahlil qilish;
- Subsidiyalar bo'yicha yillik xabarnomalarni JSTga taqdim etish tizimini shakllantirish;

- Kompensatsion choralar qo'llanilishi mumkin bo'lgan subsidiyalarni baholash va ularning iqtisodiy oqibatlarini prognoz qilish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi holatlarni bartaraf etish, O'zbekiston uchun JSTga kirish imkoniyatlarini yanada jadallashtiradi va muzokaralar jaroni tezlatadi. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lishi orqali global iqtisodiy tizimga to'laqonli integratsiyalashadi. Biroq, bu integratsiya ichki huquqiy tartibotlar, subsidiya siyosati va institutsional yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Shu bois, JST a'zoligi O'zbekiston uchun nafaqat tashqi bozorlarga kirish imkoniyati, balki ichki islohotlar uchun kuchli turtki bo'lishi mumkin.

REFERENCES

1. Supriyo, Agus, and Satria Unggul Wicaksana Prakasa. "Subsidies and Countervailing Measures: Challenges in International Trade Law." Jurnal Komunikasi Hukum (JKH) 7, no. 1 (2021): 10-22.
2. Sutrisno, Nandang. "Subsidy control in WTO case study: United States–Measures affecting trade-in large civil aircraft–second complaint." (2020).
3. Stehn, Jürgen. Subsidies, countervailing duties, and the WTO: Towards an open subsidy club. No. 276. Kieler Diskussionsbeiträge, 1996.